

**O'ZBEKISTONDA KAM TA'MINLANGAN OILALARNI QO'LLAB-  
QUVVATLASH MEXANIZMLARI**

*O'ZMu Ijtimoiy ish yo'nalishi*

**3-kurs talabasi Amonova Sitora Namoz qizi**

+(998)94-911-27-03 @Sora

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, iqtisodiy islohotlar jarayonida ayrim oilalarning daromad darajasi pastligi ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularga manzilli yordam ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, “temir daftar”, “ayollar daftari” va “yoshlar daftari” tizimlari orqali ehtiyojmand aholini ro'yxatga olish hamda ularga individual yondashuv asosida yordam berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, nafaqa va moddiy yordamlar, bandlikni ta'minlash dasturlari, kasb-hunar o'rgatish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi kengaytirilib bormoqda. Mazkur maqolada O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mohiyati, ularning amaliy jihatlari hamda samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Temir daftar, Yoshlar daftari, Kam ta'minlangan oilalar, Ijtimoiy tenglik, Oila kodeksi, Ayollar daftari, Ta'lim va sog'liqni saqlash, Mahalla yettiligi, Ijtimoiy himoya yagona reyestri*

Oila insoniyat tarixida jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. U qadimdan ma'naviyat va tarbiyaning boshlang'ich maskani sifatida e'tirof etilgan. Oila jamiyatning tabiiy va demokratik hujayrasi bo'lib, unda inson nafaqat dunyoga keladi, balki ma'naviy va axloqiy kamol topadi. Mahalla tizimi orqali esa oila jamoaviylik tuyg'usini shakllantiradi va mahalla ijtimoiy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois oila jamiyat barqarorligining poydevoridir. Oila va jamiyat o'rtasidagi bu uzviy bog'liqlik davlatning ijtimoiy siyosatida ham muhim o'rin egallaydi. Davlat oilani qo'llab-quvvatlash va himoya qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bugungi kunda oila ijtimoiy himoyasining samaradorligini oshirish, uning barqarorligini mustahkamlash va farovonligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2020 yildan boshlab "Temir daftar" va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" tizimlari orqali kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatishning manzilligi va shaffofligi oshirildi. "Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini elektron axborot tizimlari orqali qo'llab-quvvatlash, yagona bazada qamrab olish tadbirlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlari, jumladan Argentina, Braziliya, Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Pokiston kabi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turli xil ko'rinish va mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. "Ijtimoiy

10-Aprel, 2026-yil

himoya yagona reyestri” axborot tizimi ilk bor tajriba-sinov tariqasida 2019 yilning 1 oktyabridan boshlab Sirdaryo viloyatida joriy etildi va tizim muvaffaqiyati deb topilganligi sabab 2020 yilning sentyabr oyidan respublikaning barcha hududlariga bosqichma-bosqich joriy etildi. Kam ta’minlangan oilalarni “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlash hamda ularga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida Vazirlar Mahkamasining 05.03.2021 yildagi 122-sonli qarori qabul qilindi. Bugungi kunda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga 13 ta vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridan 44 turdagi ma’lumotlar elektron olinmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora tadbirlari to’g’risida”gi farmoni bilan kam ta’minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash bilan bog‘liq quyidagi asosiy o‘zgartirishlar kiritildi.

2021 yil 1 sentyabrdan boshlab:

- amalda bo‘lgan kam ta’minlangan oilalarga 14 yoshgacha bolalari uchun nafaqa va 2 yoshgacha bolani parvarish qilish nafaqasi o‘rniga yagona bolalar nafaqasi joriy etildi.

- bolalar yoshi me’yori 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi.

- to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha uzaytirildi.

- nafaqa miqdori oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilanishi joriy etildi.

Bunda:

- 3 yoshgacha bitta farzandi uchun – 325 ming so‘m;

- 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bitta farzandi uchun – 250 ming so‘m;

- ikkinchi farzandi uchun qo‘shimcha – 150 ming so‘m;

- uchinchi va undan keyingi har bir farzandi uchun qo‘shimcha – 100 ming so‘mdan;

- farzandi bo‘lmagan yoki farzandlari 18 yoshdan katta bo‘lgan kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanmoqda.

- moddiy yordamning miqdori – 380 ming so‘mni tashkil etadi. Davlat tomonidan oilani qo‘llab-quvvatlash tizimi. Davlat oilani qo‘llab-quvvatlashda kompleks, tizimli va barqaror mexanizmlarni shakllantirgan. Bular quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

#### 1. Huquqiy asoslar

Oila institutini mustahkamlashning asosiy huquqiy manbasi — O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo‘lib, unda “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va davlat himoyasida” ekanligi belgilangan. “Oila kodeksi”, “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlarito‘g‘risida”gi qonun hamda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlar ushbu sohadagi huquqiy me‘yorlarning poydevorini tashkil etadi.

#### 2. Ijtimoiy-iqtisodiy yordam

Davlat oilalarning farovonligini ta’minlash maqsadida ijtimoiy yordam va himoya dasturlarini joriy etgan. Bunga kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam va nafaqalar berish, ko‘p bolali oilalarga soliq va kommunal imtiyozlar taqdim etish, yosh oilalar uchun arzon ipoteka kreditlari va uy-joy dasturlarini amalga oshirish kiradi. Shuningdek, ayollar

bandligini ta'minlash, kasb-hunar o'rgatish markazlari tashkil etish orqali ularning iqtisodiy faolligi oshirilmoqda.

### 3. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida qo'llab-quvvatlash

Yosh avlodning sog'lom o'sishi va to'laqonli ta'lim olishini ta'minlash maqsadida bepul tibbiy xizmatlar, onalik va bolalikni himoya qilish dasturlari, “Yoshlar – kelajagimiz” hamda “Ayollar daftari” loyihalari orqali oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash choralari ko'rilmogda.

Jahon tajribasida, xususan Skandinaviya mamlakatlarida, oilani qo'llab-quvvatlashning samarali modeli sifatida ijtimoiy sug'urta tizimi, ota-onalik ta'llari, bepul ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari e'tirof etiladi. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda bosqichma-bosqich xalqaro standartlarga yaqinlashmogda — oilaviy siyosatning kompleks dasturlari joriy etilib, ijtimoiy himoya mexanizmlari raqamlashtirilmogda.

Shuni alohida takidlab o'tish joizki, 2021 yil 1 sentyabrga qadar tayinlangan ijtimoiy nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam avtomatik tarzda, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatishning yangi tartibiga asosan nafaqa miqdori oshishi nazarda tutilgan fuqarolardan qo'shimcha ariza va hujjatlar talab etmagan holda, kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasiga o'tkazilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida”gi farmonida Kam ta'minlangan oilaga moddiy yordam tayinlash va to'lashga oid qaror qabul qilish chog'ida ijtimoiy adolat, ro'y-rostlik, keng oshkoralik qoidalariga rioya etilishi, ajratilgan mablag'lar aniq maqsadni ko'zlab va samarali foydalanilishi uchun majburiy shartlar bo'lishi zarur deb belgilangan.

O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida onlayn nazorat tizimi ishga tushirildi “Onlayn mahalla” platformasida muhojirlarga ko'rsatilayotgan yordamni kuzatib borish va kam ta'minlangan oilalar bilan manzilli ish olib borish imkonini beruvchi “Shaxsiy dastur” moduli faoliyat boshladi. Ushbu modul doirasida ijtimoiy himoya va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj 729 ming oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha maqsadli dastur ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ularning moddiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan turli xil ijtimoiy yordam choralari ko'rilmogda.

Shavkat Mirziyoyev 17-dekabr kuni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashni yaxshilash, hududlarda kompleks ijtimoiy va rehabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish, bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Kam ta'minlangan va kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan oilalarni aniqlash, aholining real ehtiyojlarini inobatga olgan holda ijtimoiy yordam va xizmatlarni yagona tizim asosida tashkil etish choralari ko'rib chiqildi.

Ijtimoiy himoya yagona reyestri doirasida 1,8 million oilaning ijtimoiy holati baholanib, ularning 739 mingtasi, jumladan, kam ta'minlangan va kambag'allik yoqasiga kelib qolgan oilalar reyestrga kiritilgan. Ularga nafaqa va turli moddiy yordamlar tayinlangan. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari aholining daromad darajasi va bandlik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda differensial yondashuv asosida amalga oshiriladi. Xususan, nogironligi bo'lgan oilalarning ayrim toifalari uchun majburiy bandlikni talab qilmagan holda ijtimoiy yordam ko'rsatish nazarda tutilmogda. Bunda, “mahalla yettiligi”ga

a’zolari mehnatga layoqati cheklangan yoki og’ir turmush sharoitida bo’lgan oilalarni “Ijtimoiy reyestr”ga kiritish huquqi beriladi. Bundan tashqari, reyestrda kiritilgan oilalarning daromadini oshirish, sog’liqni saqlash, bandlik, uy-joy bilan ta’minlash va boshqa yo’nalishlarda ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish, mehnatga layoqatli oila a’zolarini bandlik va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish choralari nazarda tutilmoqda.

Xulosa Oilani davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash mexanizmlari jamiyat barqarorligi va demografik o’sishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O’zbekiston tajribasi shuni ko’rsatadiki, oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy himoya tizimi uyg’un rivojlansa, bu nafaqat oila mustahkamligiga, balki butun jamiyatning farovonligiga xizmat qiladi. Shuning uchun kelgusida ham oilani iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash siyosatini yanada chuqurlashtirish zarur. Oilani davlat va jamoatchilik tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimi — bu jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi strategik yo’nalishdir. Oila mustahkam bo’lmasa, jamiyat ham barqaror bo’la olmaydi. Shu bois, davlat siyosatini yanada takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish, har bir fuqaroning oilaviy qadriyatlarni asrashdagi mas’uliyatini oshirish – milliy taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. -J. I. Toshkent. O’zbekiston, 2018
2. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T., O’qituvchi. 1994
3. [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00125/125\\_i\\_20251116\\_184747\\_2%20\(26\).pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00125/125_i_20251116_184747_2%20(26).pdf) -maqola
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/oila-va-ijtimoiy-himoya-tizimining-o-zbekistondagi-rivojlanish-tendensiyalari>
5. [https://review.uz/uz/post/kam-taminlangan-oilalarni-moddiy-tomondan-qollab-quvvatlanishi-boyicha-qanday-qulayliklar-yaratildi?utm\\_source=perplexity](https://review.uz/uz/post/kam-taminlangan-oilalarni-moddiy-tomondan-qollab-quvvatlanishi-boyicha-qanday-qulayliklar-yaratildi?utm_source=perplexity)
6. [https://caravan-info.uz/uz/obshchestvo/252513-v-uzbekistane-zapustili-onlayn-monitoring-dlya-podderzhki-maloobespechennyh-semey.html?utm\\_source=perplexity](https://caravan-info.uz/uz/obshchestvo/252513-v-uzbekistane-zapustili-onlayn-monitoring-dlya-podderzhki-maloobespechennyh-semey.html?utm_source=perplexity)
7. [https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/19/socialservice/?utm\\_source=perplexity](https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/19/socialservice/?utm_source=perplexity)
8. PF-938-сoн 23.08.1994. Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to’g’risida